



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

2019-yilning yanvar-aprel oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Jami qurilish ishlari hajmi –
21240,8 mlrd. so'm

O'tgan yilning mos davriga
nisbatan –
107,9 %

Nodavlat mulkchiligidagi
tashkilotlar –
20208,7 mlrd. so'm

Davlat mulkchiligidagi
tashkilotlar –
1032,1 mlrd. so'm

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 21240,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 5723,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 4,8 % ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,9 %ga kamaygan.

Yirik pudrat
tashkilotlari




Kichik korxona va
mikrofirmalar



Norasmiy sektor



O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da




Jami qurilish ishlaridagi ulushi % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,2 %i to`g`ri kelib, o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni tashkil etgan holda 11727,6 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko`payib, 17,8 % ni tashkil etdi va 3789,4 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 112,5 % ni tashkil etgani kuzatildi.



Shuni ta`kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi **yangi bino va inshootlarni qurish** bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 76,3 %i yoki 16197,4 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy soha obyektlarini yaratishga qaratilgan.




Yirik qurilish tashkilotlari yangi qurilish hisobidan 5219,4 mlrd. so`m bajarilib, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1% tashkil etdi.




Norasmiy sektor hissasiga 3385,5 mlrd. so`m yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 % yangi qurilish ishlariга to`g`ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 7592,5 mlrd. so`m, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 103,5 % yangi qurilish ishlari bo`yicha bajarilgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshoatlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 27,3 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamayib, 49,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko'payib, 23,5 % ni tashkil etdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari *(jamiga nisbatan)*




Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 36,1 % ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 5,5 % punktga ko`paydi..

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 61,2 % (4,5 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 2,7 % ni (1,0 % punktga kamayish) tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko`paydi va 16,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 83,1 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

| | Jami qurilish ishlari hajmi, mlrd. so`m | Jamiga nisbatan, % da | O`sish sur`ati, % da | Jamidan yangi qurilish ishlari hajmi, mlrd. so`m |
|-------------------------------------|--|--------------------------------------|-------------------------------------|---|
| O`zbekiston Respublikasi | 21240,8 | 100,0 | 107,9 | 16197,4 |
| Qoraqalpog`iston Respublikasi | 1035,4 | 4,9 | 109,5 | 776,1 |
| viloyatlar: | | | | |
| Andijon | 1173,1 | 5,5 | 105,1 | 781,2 |
| Buxoro | 1145,6 | 5,4 | 115,6 | 680,8 |
| Jizzax | 702,0 | 3,3 | 109,0 | 566,6 |
| Qashqadaryo | 1438,4 | 6,8 | 104,3 | 1031,8 |
| Navoiy | 823,5 | 3,9 | 101,1 | 613,5 |
| Namangan | 822,8 | 3,9 | 107,4 | 599,2 |
| Samarqand | 1177,0 | 5,5 | 103,8 | 930,4 |
| Surxondaryo | 1119,0 | 5,3 | 114,6 | 932,3 |
| Sirdaryo | 438,2 | 2,1 | 107,2 | 282,7 |
| Toshkent | 1178,7 | 5,5 | 107,3 | 874,5 |
| Farg`ona | 1222,2 | 5,8 | 110,0 | 827,8 |
| Xorazm | 751,1 | 3,5 | 103,8 | 590,1 |
| Toshkent sh. | 4732,9 | 22,3 | 114,6 | 3229,4 |

Hududlar bo`yicha qurilish ishlari tarkibida Toshkent shahri qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar Respublika bo`yicha jami hajmning 22,3 % ini tashkil etdi. Bu 4 732,9 mlrd. so`m qurilish ishlari demakdir. Bunday katta hajmdagi qurilish ishlari Respublika bo`yicha eng yirik qurilish tashkilotlarining hamda ko`plab kichik qurilish korxonalari va mikrofirmalarni Toshkent shahrida joylashgani bilan izohlanadi.

Shu bilan birga mazkur hududda olib borilayotgan keng ko`lamli qurilish ishlari, jumladan, metro liniyalari qurilishi, “Tashkent City” xalqaro ishbilarmonlik markazi qurilishi, davlat dasturlari doirasuda va boshqa sotish uchun mo`ljallangan ko`plab turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlari hajmining katta bo`lishiga sabab bo`lmoqda.



Qurilish ishlaringin hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida (115,6 %) kuzatildi:


- Magistral yo'llarni rekonstruksiya qilish "Buxoro yo'llardan mumtazam foydalanish" UK tomonidan;
- Kuldan tozalash bloklarida qurilish ishlari "Neftegazuskunamontaj" UK tomonidan;

Qolgan viloyatidagi yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining oshishiga:

- "Navoiy davmaxsusupdrat" UK tomonidan kanallar va kollektorlarni yangi qurilishi hamda rekonstruksiyasi;
- "Navoiy ko'priklardan foydalanish" UK tomonidan avtomagistral yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari;
- "Karmandavsuvmaksusupdrat" UK tomonida kollektorlar qurilish ishlari olib borilmoqda;.
- "Qashqadaryo neft-gaz qurilish va ta'mirlash" AJ tomonidan Qarshi shahar "Vatanparvar" bog'ida qurilish hamda rekonstruksiya ishlari bajarilgan.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlaringin o'sish sur'atlari


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)





Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo`yicha tarkibida Toshkent shahri (hududdagi jami qurilish hajmining 21,1%i yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 130,1 %), Navoiy (mos ravishda, 23,1% va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 86,0 %), Buxoro (mos ravishda, 16,6 % va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 117,4 %) va Qashqadaryo viloyatlari (mos ravishda, 14,9 % va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 142,1 %) yetakchilik qilmoqda.

Hududlar kesimida qurilish ishlari





Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand (hududdagi jami qurilish hajmining 1,5 %i yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 136,2 %), Jizzax (mos ravishda, 1,7 % va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 179,2 %) va Sirdaryo viloyatlarida (mos ravishda, 2,5 % va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5


marta ko`paygan) kuzatildi.

Faoliyat turlari bo`yicha hududlar kesimida qurilish ishlari


2019 yil yanvar - aprel oylarida




Namangan viloyati



Samarqand viloyati




Surxondaryo viloyati




● Binolar va inshootlarni qurish
● Fuqarolik obyektlarini qurish
● Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Sirdaryo viloyati




Toshkent viloyati




Farg'ona viloyati



Xorazm viloyati



Toshkent shahri



Binolar va inshoootlar qurilishi bo`yicha Xorazm (jami hajmdan 81 %), Navoiy (78 %) va Jizzax (79 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Fuqarolik obyektlari qurilishida Surxondaryo viloyati (22 %), Toshkent shahri (18 %) va Sirdaryo (20 %) viloyatida yuqori ko`rsatkichlar qayd etilgan bo`lsa, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo`yicha Buxoro (18 %) hamda Samarqand (14 %) viloyatlarida yuqori ko`rsatkichlar kuzatildi.



O`zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo`mitasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

J.Saipov

Aloqa telefoni:

(71) 230-80-56